

OMMAVIY OFERTA

«Muvaffaqiyatli ayol» aksiyasini o'tkazish to'g'risida

Mazkur ommaviy oferta (bundan buyon — **Oferta**) “Garant bank” Aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon — **Bank**) tomonidan o'tkaziladigan «Muvaffaqiyatli ayol» aksiyasida ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

Ushbu Oferta Bankning noma'lum doiradagi shaxslarga qaratilgan rasmiy taklifi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367–369-moddalariga muvofiq, ishtirokchi tomonidan mazkur Ofertada nazarda tutilgan shartlar bajarilgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. «Muvaffaqiyatli ayol» aksiyasi Bank tomonidan 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda Bankning kredit mahsulotlarini targ'ib qilish maqsadida o'tkaziladi.

1.2. Mazkur Oferta mijozlarning aksiyada ishtirok etish tartibini, imtiyozli xizmatlardan foydalanish hamda aksiyada nazarda tutilgan boshqa afzalliklarni olish shartlarini tartibga soladi.

1.3. Aksiyada ishtirok etish mijozning ushbu Oferta shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini anglatadi.

1.4. Mazkur aksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya hisoblanmaydi hamda mijozlar faolligini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi.

1.5. Ushbu Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklovlarsiz to'liq qabul qilishni anglatadi hamda yozma shartnoma tuzish bilan teng huquqiy kuchga ega.

1.6. Mazkur Ofertani aksept qilgan holda Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlaydi:

- u ushbu Oferta shartlari bilan to'liq tanishgan, ularga rozilik bildiradi va ularga rioya etish majburiyatini oladi;
- unga Oferta mazmuni va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar tushunarli;
- u huquqiy layoqatga ega ekanini hamda Tashkilotchi bilan shartnoma munosabatlariga kirishish uchun qonuniy huquqlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

2. Aksiya tashkilotchisi

Aksiya tashkilotchisi: “Garant bank” Aksiyadorlik jamiyati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-yil 16-iyuldagi 42-sonli litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi.

3. Aksiya ishtirokchilari

3.1. Aksiya ishtirokchilari Bankning yangi mijozlari bo'lishi mumkin, jumladan:

- ayollar — yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ayollar rahbarligidagi kichik va o'rta biznes subyektlari;
- ustav kapitalida ayol muassislar ulushi kamida 50% bo'lgan yuridik shaxslar.

3.2. Aksiya ishtirokchilari aksiya o'tkazilayotgan davrda “Garant bank” AJda hisob-kitob hisobvarag'ini ochishlari shart.

4. Aksiyani o'tkazish muddati

4.1. Aksiyani o'tkazish davri: 2026-yil 6-martdan 2026-yil 6-maygacha.

4.2. Aksiya shartlarining amal qilish muddati: 2026-yil 6-martdan 2026-yil 6-avgustgacha.

5. Aksiya shartlari

5.1. Aksiya davrida Bankda hisob-kitob hisobvarag'ini ochgan mijozlar quyidagi xizmatlardan **imtiyozli shartlarda** foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

- to'lov hujjatlari bo'yicha pul o'tkazmalari — **0% komissiya**;
- **Internet-banking** va **Mobile-banking** masofaviy bank xizmatlari — **komissiyasiz**;
- terminallar ijarasi — **0 so'm**;
- korporativ bank kartasini to'ldirish — **0 so'm**.

5.2. Aksiya ishtirokchilariga «**Muvaffaqiyatli ayol**» kredit mahsuloti ham quyidagi shartlarda taklif etiladi:

- foiz stavkasi — **yillik 24,99%**
- kredit muddati — **36 oygacha**
- imtiyozli davr — **6 oygacha**
- kredit maqsadi — biznes aylanma mablag'larini to'ldirish
- maksimal kredit summasi — **300 000 000 so'mgacha**
- kredit valyutasi — **O'zbekiston so'mi**
- «**Biznes-Hamkor**» va «**Biznes GO**» kredit mahsulotlari doirasida taqdim etiladi
- majburiy ta'minot — kredit summasining kamida **125%** miqdorida likvid garov.

Kredit ajratish to'g'risidagi qaror Bankning ichki tartib-taomillari hamda talablariga muvofiq qabul qilinadi.

6. Aksiya ishtirokchilari uchun sovg'a

6.1. Ushbu Oferta shartlarini bajargan aksiya ishtirokchilariga **milliy valyutadagi korporativ plastik karta bepul** taqdim etiladi.

6.2. Mijoz quyidagi karta turlaridan birini tanlashi mumkin:

- **HUMO**
- **UzCard**

7. Imtiyozli shartlarning yakunlanishi

7.1. Aksiya muddati tugagandan so'ng mijozlarga xizmat ko'rsatish Bankning amaldagi tariflariga muvofiq **standart shartlar asosida** amalga oshiriladi.

8. Tashkilotchining huquqlari

Bank quyidagi huquqlarga ega:

- aksiyani shartlarini (shu jumladan uning muddatlarini) o'zgartirish, bunda yangilangan ma'lumotlar Bankning rasmiy kanallari yoki veb-saytida majburiy ravishda e'lon qilinadi. Bunda o'zgarishlar qonunchilikda boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, allaqachon aniqlangan g'oliblarga nisbatan qo'llanilmaydi;
- aksiyani muddatidan oldin yakunlash;
- mijoz aksiya shartlariga yoki Bank talablariga mos kelmagan taqdirda uni aksiyada ishtirok etishdan rad etish.

Aksiyaga oid barcha o'zgarishlar Bankning **rasmiy veb-saytida** e'lon qilinadi.

9. Shaxsiy ma'lumotlar

9.1. Aksiyada ishtirok etgan holda Ishtirokchi Bankka o'zining shaxsiy ma'lumotlarini (F.I.Sh., telefon raqami, karta yoki operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda aksiyani o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar) aksiyani tashkil etish va boshqarish maqsadida qayta ishlashga rozilik beradi.

9.2. Bank shaxsiy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Bankning ichki siyosatlariga muvofiq qayta ishlaydi.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur Oferta Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

10.2. Mazkur Ofertaning aksepti sifatida Ishtirokchi tomonidan aksiya shartlarining bajarilishi, jumladan aksiya davrida Bankda hisob-kitob hisobvarag'ini ochish e'tirof etiladi.

10.3. Ushbu Oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.